



Legal Framework for Ecological Disaster Areas

Munira BERDIKULOVA¹

Tashkent State Law University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

5 October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

ecological disaster zone,

legal regime,

Aral Sea region ecological
disaster zone.

ABSTRACT

This article provides a general overview of ecological disaster zones, discusses the legal framework governing such areas, focuses on the Aral Sea ecological disaster zone, and examines state measures aimed at stabilizing these regions.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss11/S-pp45-51>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ekologik ofat zonalarining huquqiy rejimi

Kalit so'zlar:

ekologik ofat zonasi,

huquqiy rejim,

Orolbo'yi ekologik ofat
zonasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologik ofat zonasiga umumiy tavsif, ekologik ofat zonalarining huquqiy rejimi, Orolbo'yi ekologik ofat zonasi hamda ushbu zonalarini barqarorlashtirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari yuzasidan fikr yuritiladi.

Правовой режим зон экологического бедствия

Ключевые слова:

зона экологического

бедствия,

правовой режим,

зона экологического
бедствия Приаралья.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются общая характеристика зоны экологического бедствия, правовой режим зон экологического бедствия, зона экологического бедствия Приаралья, а также государственные меры по стабилизации этих зон.

KIRISH

Hozirgi davrda insoniyat taraqqiyoti va texnikaviy yutuqlar nafaqat ijobiy natijalar, balki qator ekologik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Sanoatning jadal rivojlanishi, qishloq xo'jaligi texnologiyalarining o'zgarishi, transportning ko'payishi va

¹ PhD student at Tashkent State Law University. E-mail: munirafakhriddinovna@gmail.com

boshqa antropogen omillar atrof-muhitga ta'sir ko'lamini keskin kengaytirib, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatga jiddiy putur yetkazmoqda. Bu jarayonlar natijasida ekologik muhit barqarorligi izdan chiqib, global hamda mahalliy miqyosdagi ekologik inqirozlar yuzaga kelmoqda.

ASOSIY QISM

Tabiiy va texnogen ya'nikim inson faoliyati oqibatida yuzaga keladigan falokatlar oqibatida ba'zi hududlarda **ekologik ofat zonalari** shakllanadi. Ekologik ofat zonalari – bu tabiiy muhitning jiddiy buzilishi, ekologik muvozanatning izdan chiqishi natijasida odamlarning hayoti, sog'ligi va xo'jalik faoliyatiga xavf tug'diradigan hududlardir. Bunday zonalarda atrof-muhit komponentlari (havo, suv, tuproq)ning ifloslanishi yuqori darajaga yetib, tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari keskin cheklanadi.

Ushbu inson hayoti uchun xavfli bo'lgan zonalarining yuzaga kelishiga bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda, tabiiy omillar. Zilzila, toshqin, qurg'oqchilik, kuchli shamollar kabi tabiiy ofatlar natijasida atrof-muhit izdan chiqishi, yer va suv resurslari kamayishi, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetishi mumkin. Bu esa tabiiy ekotizimlarning barqarorligini buzadi va odamlarning turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan esa, antropogen omillar ya'nikim inson faoliyatining natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1) Yirik sanoat avariylari va chiqindilarning to'planib qolishi: Sanoat korxonalaridagi avariylar (masalan, kimyo, neft-gaz, metallurgiya sanoati korxonalari) atrof-muhitga katta miqdorda zararli moddalar chiqishiga olib keladi. Shu bilan birga, chiqindilarning yillar davomida to'planib qolishi ham havo, suv va tuproqning ifloslanishiga sabab bo'lib, ekologik ofat zonasini yuzaga keltiradi.

2) Radioaktiv, kimyoviy yoki biologik ifloslanish: Atom elektr stansiyalaridagi avariylar, zaharli kimyoviy moddalarning atrof-muhitga chiqishi yoki biologik xavfli moddalar tarqalishi keng ko'lamli ekologik ofatga olib keladi.

3) Uzoq muddatli noto'g'ri yer va suv resurslaridan foydalanish. Bularga misol qilib cho'llanish, sho'rlanish, eroziyani keltirishimiz mumkin. Shuningdek, sug'orishda samarasiz texnologiyalar, yerning haddan tashqari ekspluatatsiyasi natijasida tuproq sho'rlanishi, degradatsiya va eroziya yuzaga keladi.

4) Qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini kamaytiradigan texnologiyalarni qo'llash, ya'nikim agrotexnik qoidalariga zid ishlov berish, ortiqcha kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarni qo'llash tuproq sifatining yomonlashishiga, biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi.

5) Suv resurslaridan samarasiz foydalanish. Masalan, suv manbalarining haddan tashqari sarfi, suv yo'qotish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan sug'orish tizimlaridan foydalanish suv tanqisligini keltirib chiqaradi, bu esa ekotizimlarni degradatsiyaga uchratadi va ekologik ofat hududlari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda, yuqorida qayd etib o'tilgan omillar har yili dunyo bo'ylab millionlab insonlarning hayoti uchun xavf tug'diradigan ekologik ofat zonalarini yuzaga keltiradi. Ekologik ofatlar nafaqat alohida hududlar, balki global ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid solib, millionlab insonlarning hayoti va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turli xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari buni yaqqol ko'rsatib bermoqda.

BMT atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra: har yili dunyo bo'yicha taxminan **150 million kishi** turli ekologik ofatlar (qurg'oqchilik, suv toshqini, cho'llanish, kuchli shamollar) ta'sirida qoladi. Bu esa ularning sog'lig'i, turmush sharoiti va xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FAO (2020-yil) ma'lumotlariga ko'ra: har yili global miqyosda **12 million gektar yer** cho'lga aylanish xavfi ostida turibdi. Bu jarayon asosan suv resurslaridan samarasiz foydalanish, tuproqni noto'g'ri ishlov berish va iqlim o'zgarishlari natijasida yuzaga keladi.

Birgina **Chernobil atom elektr stansiyasi avariyasi (1986-yil)** XX asrning eng yirik texnogen ekologik ofatlaridan biri bo'lgan ushbu avariya natijasida:

- **200 ming kvadrat kilometrdan ortiq hudud** radioaktiv ifloslanishga uchradi;
- bu hudud Belarus, Ukraina va Rossiyaning katta qismini qamrab oldi;
- **350 mingdan ortiq kishi** o'z uylarini tark etishga va boshqa hududlarga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi;
- radioaktiv ifloslanish natijasida mintaqadagi flora va fauna jiddiy zarar ko'rdi, tuproq va suv resurslari zaharlanishi tufayli minglab gektar yer xo'jalik faoliyati uchun yaroqsiz bo'lib qoldi [1].

Yuqoridagi ma'lumotlar ekologik ofat zonalarining faqat mahalliy emas, balki global muammo ekanini ko'rsatadi. Shu sababdan ham, ekologik ofatlar oqibatlarini yumshatish, ularning oldini olish choralari ko'rish, aholini himoya qilish va tabiiy muhitni tiklash bo'yicha xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

EKOLOGIK OFAT ZONALARINING HUQUQIY REJIMI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida belgilab qo'yilganidek, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Shuningdek, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda** ham favqulodda ekologik vaziyatlarning va ekologik ofatlarning, ekologik jihatdan xavf tug'diradigan vaziyatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda tabiiy ofatlar va yirik avariylarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy vakolatlaridan biri sifatida alohida e'tirof etilgan.

Shu keltirilgan qonun normalariga asoslanib ham aytishimiz mumkinki, davlatimiz har doim fuqarolarning sog'lom muhitda istiqomat qilishiga harakat qiladi. Nafaqat shahar hududida, balkim ekologik ofat zonalarini ham har tomonlama insonlar hayoti uchun maksimal miqdorda xavfdan holi qilish vazifasi asosiy o'rinda turadi. Buning uchun esa, birinchi navbatda, ushbu zonalarining huquqiy rejimini to'g'ri tashkil etish zarur bo'ladi.

Ekologik ofat zonolari uchun huquqiy rejim bu bunday hududlarda inson salomatligi, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq maxsus yondashuvni belgilaydi. Ekologik ofat zonolari, odatda, umumiy ma'muriy-hududiy tartibotlardan farqli ravishda boshqariladi. Bu hududlardagi jiddiy ekologik tahdidlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bunday zonalarga maxsus huquqiy chora-tadbirlarni joriy etishni taqozo etadi.

Bunda birinchi navbatda, **O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda** belgilab qo'yilganidek: "Muayyan hududning tabiat muvozanati, tabiiy ekologiya tizimlari buzilishi bilan bog'liq holda tabiiy muhitda barqaror yoki tuzatib bo'lmaz o'zgarishlar ro'y bergan yoki ro'y berayotgan qismi ekologiya ofati mintaqalari deb e'lon qilinadi" [2]. So'ngra, hudud chegaralari aniqlanadi, ekologik monitoring asosida ekolohik xavf darajasi baholanadi hamda davlat boshqaruvining maxsus vakolatli organlari jalb etiladi.

Bundan tashqari, ekologik ofat zonalarida yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot olamidan foydalanish bo'yicha **cheklovlar va maxsus tartiblar** o'rnatiladi, shuningdek ifloslantiruvchi faoliyat turlari to'xtatiladi yoki ruxsatnoma asosida nazorat qilinadi hamda ekologik ekspertiza majburiy qilib belgilanadi.

To'liqroq yondashib ma'lumot berganimizda, ekologik ofat zonasi favqulodda vaziyatning bir ko'rinishi hisoblanadi, ya'nikim bu atrof-muhit holati favqulodda ekologik vaziyat darajasiga yetgan hudud bo'lib, favqulodda vaziyat rejimi o'rnatilishini talab qiladi. Odatda ekologik ofat zonasi e'lon qilingan hududlarda favqulodda vaziyat rejimi amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining **"Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni** 21-moddasida favqulodda vaziyatlar davlat tizimining rejimlari keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, prognoz qilingan yoki ro'y bergan favqulodda vaziyatning ko'lami va holatiga qarab muayyan hududda Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining quyidagi rejimlari o'rnatiladi:

- kundalik rejim – muayyan hududda, obyektda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lmaganda;
- yuqori tayyorgarlik rejimi – favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfi mavjud bo'lganda;
- favqulodda vaziyat rejimi – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida [3].

Ushbu normadan shuni aytishimiz mumkinki, xavf mavjudligi yoki ro'y berishiga ko'ra rejim uchga bo'linadi. Bunda, kundalik rejim muayyan hududda yoki obyektda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi mavjud bo'lmaganda amal qiladigan tartib. Kundalik tartibda vaziyat barqaror bo'ladi, oddiy kundalik nazorat va profilaktika choralari amalga oshiriladi, favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar bajariladi (o'quv mashg'ulotlari, texnik xizmat ko'rsatish, monitoring).

Ikkinchisi, yuqori tayyorgarlik rejimi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi oshgan hollarda joriy qilinadi masalan, tabiiy ofat oldidan ogohlantirish berilganda. Bunda, favqulodda vaziyat xizmatlari va kuchlari tayyor holatga keltiriladi, aholi ogohlantiriladi, zarur hollarda evakuatsiya tayyorlanadi.

Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan barcha kuchlar jalb qilinadigan, favqulodda vaziyat hududi chegaralari belgilanadigan, va aholini himoya qilish, qutqaruv ishlari, tibbiy yordam ko'rsatish, zarar ko'rgan hududlarni tiklash choralari amalga oshiriladigan rejim bu favqulodda vaziyat rejimi hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik ofat zonalarining huquqiy rejimining asosiy elementlaridan biri bu maxsus huquqiy tartib o'rnatilishi. Ya'nikim, ekologik ofat zonalarida atrof-muhitni tiklash bo'yicha davlat dasturlari amalga oshiriladi, aholining salomatligini saqlash choralari ko'riladi, xo'jalik va boshqa faoliyatlar ustidan maxsus nazorat o'rnatiladi, resurslardan foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi. Bu maxsus

choralarning barchasi huquqiy tartib o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga doimiy ravishda ekologik vaziyat ustidan monitoring o'tkaziladi hamda ekologik ofat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha kompleks choralar ko'riladi.

Ekologik ofat zonalarida o'rnatiladigan huquqiy rejim aholining konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi, davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini aniq belgilaydi, tabiiy resurslardan foydalanish tartibiga cheklovlar joriy etadi hamda atrof-muhit barqarorligini saqlash va tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tarixiy, tabiiy va texnogen omillar ta'sirida ekologik muvozanat izdan chiqqan, atrof-muhit holati og'ir ahvolga tushib qolgan hududlar mavjud. Davlat bunday hududlarni **ekologik ofat zonalar**i sifatida e'tirof etib, ularni barqarorlashtirish va tiklash bo'yicha maxsus huquqiy rejim o'rnatadi.

Orolbo'yi ekologik ofat zonasi

O'zbekiston hududidagi eng yirik va eng ko'p tan olingan ekologik ofat zonasi bu – **Orolbo'yi hududi**. Orol dengizining so'nggi asr davomida keskin qisqarib borishi va qariyb qurib qolishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar ushbu mintaqani ekologik falokat hududiga aylantirdi. Shu bilan birga, Orolbo'yi hududi – Orol dengizining qurib borishi natijasida yuzaga kelgan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlar markaziga aylangan mintaqadir. Bu hudud rivojlanish sur'atlari sekinlashgan, aholining sog'lig'i yomonlashgan va tabiiy muhit izdan chiqqan ekologik ofat zonasi sifatida tan olingan. U 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi tomonidan **“Orolbo'yi ekologik ofat zonasi”** deb rasman e'lon qilingan.

Orol dengizining qisqarishi va uning tubining ochilishi natijasida mintaqada bir qancha salbiy ekologik holatlar yuzaga keldi. Birinchi navbatda, **yuz minglab gektar yerlar sho'rlandi va o'zining unumdorligini yo'qotdi**. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi pasaydi hamda yer degradatsiyasi kuchayishiga olib keldi. Shuningdek, **atmosfera havosi chang, tuz va pestitsid qoldiqlari bilan ifloslanib**, aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada nafas yo'llari kasalliklari, allergik va onkologik xastaliklar bir necha barobar miqdorga ko'paydi. Bundan tashqari, **qurg'oqchil iqlim o'zgarishlari kuchayib**, o'simlik va hayvonot dunyosi tarkibiy o'zgarishga uchrab, biologik xilma-xillik keskin kamayib ketdi.

Davlatimiz ushbu yuzaga kelgan salbiy oqibatlar ko'lamini kamaytirish, Orolbo'yi ekologik ofat hududini barqarorlashtirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir qator kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bunda birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 2021-yil 18-maydagi “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida”gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida”gi** qarori va unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida **“Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida”gi maxsus rezolyutsiyasi** Orolbo'yi hududini yaxshilash va salbiy oqibatlarni bartaraf etish borasida qo'yilgan eng katta va samarali qarorlardan bittasi bo'ldi.

Ushbu qarorga binoan, Orolbo'yi hududida istiqomat qiluvchi **aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etildi** – ekologik ofat zonasida yashovchi fuqarolarga qo'shimcha nafaqalar, kompensatsiyalar va imtiyozlar berish

ko'zda tutildi. Shuningdek, **o'rmonzorlashtirish ishlari olib borilib**, xususan, Orol dengizi tubining ochilgan qismida qum ko'chishini to'xtatish va eroziya jarayonlarini kamaytirish uchun saksovulzorlar barpo qilinmoqda. Yana bir katta qadamlardan biri **xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi**, jumladan, BMTning taraqqiyot dasturi (UNDP), Jahon banki, YeXHT va boshqa xalqaro hamkorlar bilan Orolbo'yi ekologik inqirozini yumshatish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu harakatlarning barchasi Orolbo'yi mintaqasini barqarorlashtirish yo'lida qilinayotgan harakatlar misolidir.

Orolbo'yi ekologik ofat zonasi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo va global ekologik muammolarning yorqin ifodasidir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mintaqada ekologik barqarorlikni tiklash, aholining salomatligini muhofaza qilish va tabiiy muhitni asrab-avaylashga qaratilgan. Uni bartaraf etish uchun tizimli va barqaror choralar ko'rilishi, xalqaro birdamlik va milliy siyosat uyg'unligida harakat qilinishi zarurdir.

Ekologik ofat hududlarini barqarorlashtirish bo'yicha davlat choralari

XXI asrda global ekologik muammolarning chuqurlashuvi insoniyat oldida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Iqlim o'zgarishlari, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi, cho'llanish va antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelgan ekologik inqirozlar ayrim hududlarni yashash uchun xavfli holatga olib kelmoqda. Buning natijasida huquqlarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, ekologik ofat zonalar yuzaga kelmoqda. Ekologik ofat zonalar faqat tabiiy resurslarning degradatsiyasi yoki ekologik buzilish emas, balki u bilan birgalikda inson salomatligi, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik uchun ham real tahdid manbai hisoblanadi. Mazkur hududlarda yuzaga kelgan murakkab ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, ular ta'sirini yumshatish va kelgusida bunday holatlarning oldini olish uchun kompleks, tizimli va davlat darajasida ko'riladigan barqarorlashtiruvchi chora-tadbirlar zarur bo'ladi.

Shu bois, ekologik ofat hududlarini barqarorlashtirish masalasi bugungi kunda ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlarini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada huquqiy, institutsional, iqtisodiy va ekologik mexanizmlarni uyg'un holda tatbiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Ekologik ofat hududlarini barqarorlashtirish – bu ekologik va ijtimoiy xavf darajasini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, mahalliy aholi salomatligi va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan **tizimli, davlat darajasidagi strategik choralarning majmuasidir**.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro miqyosida ham milliy darajada qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro miqyosida 2024-yil 6-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) bilan hamkorlikda Global ekologik fond (GEF) tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan yangi qo'shma loyihani ishlab chiqish doirasida validatsiya seminari o'tkazildi.

Ushbu loyiha O'zbekistonning tabiiy ekotizimlarini tiklash va barqaror boshqarishga qaratilgan. "O'zbekistonda o'ta muhim landshaftlarni muhofaza qilish va tiklashni samarali kompleks boshqarish" deb nomlangan loyiha ekotizimlarning yemirilishi, idoralararo muvofiqlashtirish, tiklash va bioahamiyatlilikni saqlash bo'yicha

faoliyatni moliyalashtirish bilan bog'liq ko'payib borayotgan muammolarga yechim berishga qaratilgan. Ushbu loyiha ham barqarorlashtirish yo'lida qo'yilgan muhim qadamlardan biri hisoblanadi [4].

Bundan tashqari, **“O'zbekiston – 2030” strategiyasida** 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb e'lon qilish belgilandi hamda mahallalarda 32 million ko'chat ekish kabi keng miqyosli ko'kalamzorlashtirish va yashil makon loyihalari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, **yashil makon loyihasi** doirasida Orolbo'yi hududida 1,9 million gektar o'rmonzor, qo'shimcha 200 ming gektar yashil zona yaratish rejalashtirilgan [5].

Bu choralar ekologik degradatsiyani to'xtatish, aholi salomatligini yaxshilash, bioxilma-xillikni tiklash va migratsion oqimlarni kamaytirishga yo'naltirilgan mintaqaviy ekologik xavfsizlik tizimini yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ekologik ofat hududlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni tiklash, aholi salomatligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadlariga qaratilgan bo'lib, mamlakatning ekologik xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ekologik ofat zonalarining huquqiy rejimi bu ekologik xavfga duchor bo'lgan hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni tiklashga yo'naltirilgan maxsus huquqiy, tashkiliy va institutsional choralar majmuasidir. ekologik ofat zonolari uchun aniq va samarali huquqiy rejimning mavjudligi barqaror rivojlanish, inson salomatligini himoya qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim huquqiy asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://www.unep.org/who-we-are/about-us?utm_source=chatgpt.com
2. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida” gi 2022-yil 17-avgustdagi qonuni.
4. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/bmttd-va-ekologiya-vazirligi-ozbekistonning-barqaror-rivojlanishi-uchun-ekotizimlarni-tiklash-va-saqlash-boyicha-yangi?utm_source=chatgpt.com
5. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasini-atrof-muhitni-asrash-va-yashil-iqtisodiyot-yilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-togrisida_686016?utm_source=chatgpt.com